TILSHUNOSLIK

UDK: 8S (O‘z1) S52 Esh91 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a93**

NODIRA BADIIY TAFAKKURINI SHAKLLANISHIDA QO‘QON ADABIY MUHITINING O‘RNI

РОЛЬ КОКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МИРОВОЗРЕНИЯ НАДИРЫ

THE ROLE OF THE KOKAND LITERARY ENVIRONMENT IN THE FORMATION OF NADIR'S ARTISTIC WORLD VIEW

Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna[1]

[1]Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna – Chirchiq davlat pedagogika universiteti professor v.b., filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Tadqiqotning maqsadi sohibi devon, zullisonayn shoira Mohlaroyim – Nodiraning ijodiy laboratoriyasini o‘rganish va shaxsiyati masalasiga bo‘lgan munosabatni davr kesimida baholash, shoira badiiy tafakkurini shakllanishida adabiy muhitning o‘rnini aniqlashdan iborat.

Shoira badiiy tafakkurini shakllanishida Qo‘qon adabiy muhitining o‘rni masalasi alohida tarixiy-qiyosiy metod asosida kompleks tahlil etildi, germenevtik usuldan foydalanilgan holda maxsus tadqiqot doirasiga tortildi.

Tadqiqot natijasi sifatida Nodiraning badiiyat olamini shakllantirgan quyidagi omillarni qayd etish mumkin: a) Turmush o‘rtog‘i Umarxonning sa’y-harakatlari; b) Jahon otin Uvaysiy saboqlari; v) Nodira rahnamoligida ijod qilgan shoiru-shoiralarning o‘zaro adabiy aloqadorligi.

*Quyidagi xulosalarga kelindi: **Birinchidan,** XVIII asr I-yarmida Qo‘qon xonligi tasarrufida shakllangan Qo‘qon adabiy muhiti Amir Umarxon davriga kelib taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Davr shoirasi – Nodiraning zarofatli shoira sifatida kamolga yetishishida adabiy muhit muhim o‘rin tutgan. Xususan, Nodira badiiy tafakkurini shakllanishida uning turmush o‘rtog‘i Umarxonning sa’y-harakatlari, Jahon otin Uvaysiy saboqlari ta’siri ostida takomil topgan bo‘lsa, shoira Nodira rahnamoligida ijod qilgan shoiru-shoiralarning adabiy aloqadorligi muhim o‘rin tutgan; **Ikkinchidan,** umr yo‘ldoshining vafotidan so‘ng Nodirayi davron Farg‘ona mulkini obod qildi. U adabiy muhit rivojiga hissa qo‘shib, XIX asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyotida ustozlik va homiylik darajasiga ko‘tarila olgan yirik siymo sifatida o‘z izini qoldirdi; **Uchinchidan,** Nodira lirikasi o‘z zamiriga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, adolat, iymon-e’tiqod g‘oyalarini zargarona singdira olgan. Shoira o‘zining lirik asarlari orqali ezgulik, hayotda yaxshi nom va ezgu ish qoldirish g‘oyalarini tarannum etganligi bilan ahamiyatli. Uning lirikasi xalq qalbida jo‘shqinlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Ushbu holat shoirani Qo‘qon adabiy muhitiga munosib voris ekanligini isbotlaydi.*

Аннотация

Цель исследования определить место литературной среды, изучить творческую лабораторию и оценить отношение к проблеме личности в формировании художественного мышления автора дивана, двуязычной поэтессы Мохларойим – Надиры в разрезе эпохи.

Вопрос о роли литературной среды Коканда в формировании художественного мышления поэтессы был всесторонне проанализирован на основе отдельного историко-сравнительного метода, а с использованием герменевтического метода включен в специальные рамки исследования.

В результате исследования можно отметить следующие факторы, сформировавшие художественное мировоззрение Надиры: а) усилия и поучение супруга Умархана; б) наставление Джахан Атин Увайси; в) литературная связь поэтов, работавших под руководством Надиры.

*Были сделаны следующие выводы: **Во-первых,** литературная среда Коканда, сформировавшаяся в первой половине XVIII века под властью Кокандского ханства, достигла пика своего развития в период правления Амир Умархана. Литературная среда сыграла важную роль в становлении Надиры, как поэтессы эпохи. В частности, художественное мышление Надиры совершенствовалось под влиянием усилий ее мужа Умархана и наставление Джахан атин Увайси, при этом важную роль сыграла литературная связь поэтов, творивших под руководством поэтессы Надиры; **Во-вторых,** после смерти спутника жизни Умархана поэтесса Надира улучшила имущество Ферганы. Способствуя развитию литературной среды, она оставила свой след крупной фигурой в узбекской литературе первой половины XIX века, сумевшей подняться до уровня наставника и покровительства; **В-третьих,** лирика Надиры смогла воплотить в своей сути идеи любви, верности, человечности, справедливости и веры. Лирика поэтессы важна тем, что в своих лирических произведениях она воспевала идеи добра, доброго имени и доброго дела в жизни. Ее лирика вызывает чувство энтузиазма в сердцах людей. Эта ситуация доказывает, что поэтесса является достойной наследницей литературной среды Коканда.*

Abstract

The purpose of the study is to determine the place of the literary environment, to study the creative laboratory and evaluate the attitude to the problem of personality in the formation of the artistic thinking of the author of the divan, the bilingual poetess Mohlaroyim-Nadira in the context of the era.

TILSHUNOSLIK

The issue of the role of the literary environment of Kokand in the formation of the artistic thinking of the poetess was comprehensively analyzed on the basis of a separate historical-comparative method, and using the hermeneutical method, it was included in a special framework of the study.

As a result of the study, the following factors can be noted that formed the artistic worldview of Nadira: a) the efforts and teaching of her husband Umarkhan; b) instruction by Jahan Atin Uvaisi; c) the literary connection of the poets who worked under the direction of Nadira.

*The following conclusions were made: **Firstly,** the literary environment of Kokand, which was formed in the first half of the 18th century under the rule of the Kokand Khanate, reached its peak during the reign of Amir Umarkhan. The literary environment played an important role in the formation of Nadira as a poetess of the era. In particular, the artistic thinking of Nadira was improved under the influence of the efforts of her husband Umarkhan and the instruction of Jahan Atin Uvaisi, while the literary connection of the poets who worked under the guidance of the poetess Nadira played an important role. **Secondly,** after her fiance's, Umarkhan's death, Nadira played great role in developments in Fergana. Contributing to the development of the literary environment, she left her mark as a major figure in the Uzbek literature of the first half of the 19th century, who managed to rise to the level of mentor and patronage. **Thirdly,** Nadira's lyrics were able to embody in their essence the ideas of love, fidelity, humanity, justice and faith. The lyrics of the poetess are important because in her lyrical works she sang the ideas of goodness, a good name and a good deed in life. Her lyrics evoke a sense of enthusiasm in people's hearts. This situation proves that the poetess is a worthy heir to the literary environment of Kokand.*

Kalit so'zlar: *Nodira, devon, badiiy tafakkur, Qo'qon adabiy muhiti, Umarxon, Uvaysiy, an'anaviylik, vorislik.*

Ключевые слова: *Надира, диван, художественное мышление, литературная среда Коканда, Умархан, Увайси, традиционость, преемственность.*

Key words: *Nadira, divan, artistic thinking, literary environment of Kokand, Umarkhan, Uvaysi, traditionalism, continuity.*

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida Buxoro, Xiva adabiy muhiti qanday katta ahamiyat kasb etsa, Qo'qon adabiy muhiti ham ular qatorida turadigan darajada yuksakdir. Qo'qon adabiy muhiti ko'zga ko'ringan ko'plab ijodkorlar: Gulxaniy, Uvaysiy, Nodira, Maxmur, Fazliy, Ado, Furqat kabilarni yetkazib berganligining o'ziyoq uning adabiy muhitlar aro o'ziga xos o'rni borligini belgilaydi.

Keng qamrovli, teran mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan sohibi devon, zullisonayn shoira Mohlaroyim – Nodira she'riyati falsafiy-irfoniy ma'nolardan xoli emas. Nodira she'riyatining ko'p asrlik o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rni bor. Nodira she'riyati badiiy ifodaning turli va noyob usullaridan foydalanilganligi bilan adabiy muhitda muhim maqomga ega. Shoiraning ijodiy laboratoriyasini o'rganish va shaxsiyati masalasiga bo'lgan munosabatni davr kesimida baholash, adabiy merosining birlamchi manbalarini izlab topish va o'rganish izchillik bilan davom etmoqda. Mumtoz merosimiz namunalarining shu nuqtayi nazar asosida o'rganib, baholanishi adabiyotshunosligimizdagi ko'plab ilmiy muammolar yechimiga olib kelganligi bilan muhim va dolzarbdir.

Shoira lirikasining tarixiy, diniy-ma'rifiy, falsafiy-tasavvufi va ma'naviy-axloqiy asoslarini o'rganganimizda, Nodira badiiyat olamini shakllantirishda Qo'qon adabiy muhiti, turkiy va fors-tojik adabiyoti namoyondalarining ta'sirini asoslash, shoira asarlaridagi g'oyaviy-badiiy tadrij taraqqiyotida shoira uslubi va ijodiy o'ziga xoslikning shakllanish jarayonini ochib berish, shoiraning salaflar ijodiga munosabati hamda badiiy tafakkurning yangilanish tamoyillari masalalari: an'anaviylik, ijodiy individuallik, lirik qahramoni ruhiyati tasviri, obrazlarining o'ziga xos yaratilish tamoyillari, yaratishlaridagi hayotiylik, badiiylik shoira she'riyatining janriy tarkibi, takomili, badiiy mahorat, uslubiy izlanishlar, shakl va mazmun uyg'unligi kabi o'nlab masalalar alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XX asr boshlariga kelib shoira Mohlaroyim – Nodira ijodiga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Tarjimayi holi, ijodiy merosiga oid bir qator tadqiqotlar keng jamoatchilikka ma'lum qilingan [24;30;31;1]. XX asr nodirashunoslikda shoira ijodini atroflicha o'rganilganligi bilan ajralib turadi. Nodira hasbi holi, she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari, devoni qo'lyozmalari adabiyotshunos olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan [22;23;14;34;15;16;17;18;19]. Mustaqillik yillarida ham shoira shaxsiyati va she'riyatini yoritishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan [20;7;8]. Qayd etilgan tadqiqotlarda Nodira shaxsiyati, dunyoqarashi, asarlaridagi tarixiy obrazlar tizimi, poeziyasi borasida turli yo'nalishlarda turli munosabatlar bilan fikr-mulohazalar milliy istiqlol nuqtayi nazaridan biografik va qiyosiy-tipologik metod orqali tahlil etilgan. Biz o'rganishni maqsad qilgan shoira badiiy tafakkurini shakllanishida Qo'qon adabiy muhitining o'rni masalasi

alohida tarixiy-qiyosiy metod asosida kompleks tahlil etilmagan, germenevtik usullaridan foydalanilgan holda maxsus tadqiqot doirasiga tortilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xo‘sh, shoiraning she’riyat olamida o‘z o‘rnini topishiga, noyob obraz yaratishdagi o‘ziga xos muvaffaqiyatga erishishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan? – degan savolga, bizningcha, Nodira badiiyat olamini shakllantirgan omillar sifatida uning ijodiga Qo‘qon adabiy muhiti ta’sirini quyidagicha belgilash mumkin:

a) Turmush o‘rtog‘i Umarxonning sa’y-harakatlari;

b) Jahon otin Uvaysiy saboqlari;

v) Nodira rahnamoligida ijod qilgan shoiru-shoiralarning o‘zaro adabiy aloqadorligi.

Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xos vakilasi Mohlaroyim – Nodiraning, avvalom bor, hassos shoira o‘sib-ulg‘aygan va uni tarbiyalab, yetuk ijodkor darajasiga ko‘targan muhit haqida so‘z yuritmoq joiz. Qo‘qon adabiy muhiti XVIII asrning I yarmida Qo‘qon xonligi tasarrufida tashkil topgan bo‘lib, ijodkorlarga rahnamolik qilish, adabiyot va san’at rivojiga imkon yaratish orqali xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy darajasini ko‘tarish maqsad qilingan. Bu haqda “Ansob us–salotin...” asari muallifi Mirzo Olim Qo‘qon xoni Abdulkarimxon (1732–1733) davri haqida: “Abdulkarimxon... xizmatiga Eshon, So‘fi Olloyor domullo Olim Konibodomiy va domullo Vali Xo‘jandiy va Mashrabi devonai Namangoniy kelib suhbat tutar erdilar. Alarning suhbatidin ifoda va istifoda topib, necha umumiy diniy va kashf yaqinig‘a olim va koshif bo‘lib kamolot hosil qildi” [23;5], – deya yozib qoldirgan.

Adabiyotshunos olim, akademik Aziz Qayumov ham bu davr haqida: “Xonlar adabiy harakatga hech qachon befarq qaramaganlar. Ular xalq ommasini o‘z qo‘l ostlarida tutish uchun barcha vositalardan foydalanishga harakat qilganlar. Keng omma o‘rtasida ma’lum nufuz va e’tiborga ega bo‘lgan kishilarni o‘z atroflariga tortishga harakat qilganlar... Bundan tashqari xonlar o‘z atrofiga turli shoirlarni yig‘ib, ularni turli yo‘llar bilan rag‘batlantirib ham turganlar. Shu yo‘sinda saroy atrofiga maddoh, xushomadgo‘y shoirlar yig‘ila borgan” [23], – deb yozadi. Olim o‘z fikrlarini dalillash maqsadida “Tuhfat ut-tavorixi xoniy”dan quyidagilarni keltiradi: “Qo‘qon xoni Norbo‘tabiyning (1770–178\9) Muhammaddin degan o‘g‘li bo‘lgan. Bu shahzoda adabiyotdan uncha-muncha xabardor bo‘lib, o‘z atrofiga bir necha shoirlarni yiqqan edi. Bir kuni bazm vaqtida u shoir Nusratga qarab quyidagi misrani o‘qiydi:

Ba girdi sham chun qo‘ng‘uz buvad parvona-parvona.

Mazmuni: Shamning atrofida qo‘ng‘iz shunchalik parvona bo‘ldi.

Shoir Nusrat darhol xushomad qilib, ikkinchi misrani to‘qiydi:

Sarat gardam, tariqi dilnavozy yod gir az sham.

Mazmuni: Boshingdan aylanay, dilnavozlik yo‘lini shamdan o‘rgangin.

Bu hozirjavoblikdan xursand bo‘lgan shahzoda shoir Nusratga ellik arava bug‘doy in’om etgan emish [21], – degan ma’lumotlarni keltiradi.

Shu o‘rinda, adabiyotshunos olimning ma’lumotlarini inkor etmagan holda, xonlarning maqsadi faqat ijodkorlarni boshqarish, atroflariga maddoh shoirlarni yig‘ishdan iborat bo‘lmay, balki ularning o‘zlari ham adabiyot, she’riyat bilan qalban oshno bo‘lganligini aytish joiz. Taqdirlashlarni esa “Zar qadrini zargar, javhar qadrini javharshunos biladi” [6], – deb tushunish to‘g‘ri bo‘ladi.

Chunki Nodirayi davrondek shoiraning – she’riyat mulkining malikasiga aylanishiga sabab bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhiti va uning gullab yashnashiga ulkan hissa qo‘shgan Amir Umarxon ham Qo‘qon xonlaridan bo‘lib, Amiriy taxallusi bilan she’rlar bitgan nozikta’b shoir ekanligi ma’lum.

Bu jihatdan adabiyotshunos olima I.Adizovaning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Uning o‘zi shoir bo‘lgani sababli ijod ahliga imkoniyat yaratib bergan. Ularga homiylik va rahnamolik qilgan. Miyon Buzrukning 1930 yilda Toshkentda chop etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash” kitobida bu davr Qo‘qon adabiy muhitini “Oltin beshik davri adabiyoti” deb ataydi. Bu ta’rif, birinchi navbatda, Saroy tarixchilari tomonidan keltirilgan “Oltin beshik” va Bobur haqidagi voqea bilan bog‘liq. Ikkinchidan, adabiy muhitda yaratilgan qulay ijodiy sharoit va jarayon ham nazarda tutilgan” [2].

Yuqorida adabiyotshunos olima keltirgan “Oltin beshik” voqeasiga kelsak, biz bu to‘g‘risida nomzodlik dissertatsiya ishimizda [7] to‘xtalganmiz. Nodira she’riyatida “Oltin beshik” voqeasi bilan bog‘liq qarashlarga bir qancha o‘rinlarda duch kelinadi. Bu voqea tafsilotiga ko‘ra, Oltin beshik egasi Zahiriddin Muhammad Bobur avlodidan bo‘lib, Qo‘qon xonlarining shajarasi undan

boshlanadi. Nodirabegimning Umarxon va uning xonadonini vasf etuvchi baytlarida mazkur voqea qizil ip bo‘lib o‘tadi. Chunonchi, shoira quyidagi baytida:

Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokiman,
Xudoyo, rahmat ayla, barcha ajdodi izomimni [18;297],
–deb o‘zining ham Bobur avlodidan ekanligini aytib faxrlanadi [3].

Bu bayt mashhur bo‘lgan. Shu bois bir qator tadqiqotchilar unga e’tibor qaratganlar. Jumladan, A.Qayumov: “Qo‘qon xonlarining Bobur avlodi ekani ular uchun ayon edi. Shu bilan faxr etar edilar. Qo‘qon xoni Umarxonning rafiqasi Mohlar oyim Nodira bu to‘g‘rida yozgan” [25], – deb yuqoridagi baytni havola qiladi.

Bugunda hech kimga sir emaski, XVIII asr I yarmida Qo‘qon xonligi tasarrufida yuzaga kelgan Qo‘qon adabiy muhiti Amir Umarxon davriga kelib taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tarildi, bir so‘z bilan aytganda gullab yashnadi. Bu haqda adabiyotshunos olima M. Qodirova ham o‘z vaqtida “Qo‘qon XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida Nodira, Uvaysiy, Mahzuna kabi shoirlarga vatan bo‘ldi. Ana shu davr adabiy hayotida Amiriyning o‘rni sezilarli edi” [28], – deya e’tirof etgan edi. Biz buni bir necha jihatlarda ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan, Amiriyning Qo‘qon adabiy muhitidagi ulkan xizmati xonlik hududidagi barcha iqtidorli ijodkorlarni aniqlab, saroyga yig‘ib qizg‘in ijodiy jarayonni tashkil etganida, ularga homiylik qilganida.

Ikkinchidan, bu adabiy muhit namoyandalari tarixnavislikda katta yutuqlarga erishgan. Bunday asarlar sirasiga, Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Avazmuhammad Attorning “Tuhfat ut-tavorix”, Is’hoqxon To‘raning “Tarixi Farg‘ona”, Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorixi Xavoqin”, Mutribning “Shahnomai devona Mutrib”, Mushrifning “Shahnomai Nusrat payom” kabi tarixiy asarlarini shular jumlasiga kiritish mumkin.

Uchinchidan, Amir Umarxon tashabbusi bilan tazkiranavislikda yangi yo‘nalish shakllantirilgan. U payrov she’rlardan tazkira tuzish an’anasini boshlab berdi. Shuningdek, Fazliy Namangoniy tomonidan yaratilgan “Majmuayi shoiron” tazkirasi adabiy muhitlarda alohida ahamiyat kasb etdi. “Farg‘ona shoirlarining Xorazm shoirlari ustida katta ta’sirlari bo‘lg‘anini inkor etib bo‘lmaydi. Farg‘ona “Majmuat ush-shuaro”sig‘a o‘xshatib, Xorazmda ham bir “Majmuat ush-shuaro” tuzumi buni ko‘rsatadir” [9], – degan edi adabiyotshunos olim Fitrat.

To‘rtinchidan, Amiriy an’anaviylik va vorislikka alohida ahamiyat berdi. Xususan, buning isbotini xalq ijodi namunalarini chuqur o‘zlashtirishga, ulardan mohirona foydalanib, yangi durdona asarlar yaratishga tashviq qilganida ko‘rishimiz mumkin. Bu holatni Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridan tortib, Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining ijodida kuzatishimiz mumkin. Olim Fitrat “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash” maqolasida Qo‘qon adabiy muhiti ravnaqining homiysi va rahnamosi Amir Umarxon ekanligini ta’kidlar ekan, uning taklifi va tashabbusi bilan yaratilgan Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarini nazarda tutib, “bu davrda Farg‘ona saroy adabiyotlarining xalq adabiyotig‘a ayricha diqqat qilg‘anlari ham ko‘riladir” [9], – deya ta’kidlaydi.

Beshinchidan, Qo‘qon adabiy muhitida kitobatchilikka katta e’tibor berilgan. Bu haqda “Mazkur davrda ham ko‘plab qo‘lyozmalar qayta-qayta ko‘chirildi. Ayniqsa, ushbu davr matbaa tarixini adabiy aloqalar, adabiy hamkorliklardan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki, Mirzo Bedil devonlari ko‘chirilib, ko‘p nusxalarda tarqatilgan. Uning asarlariga shoirlar naziralar, muxammaslar bog‘lashgan. Lutfiy, Navoiy, Amiriy devonlaridan iborat “Muhabbatnoma” majmuasi Turkiya sultoniga sovg‘a tariqasida yuborilgan. 1836-1837 yillarda Amiriy va Nodiraning o‘g‘li Muhammadalixon buyrug‘iga binoan xattot Dabir tomonidan Fuzuliy devoni ko‘chirilgan” [2] ligi e’tirof etilgan.

Oltinchidan, Qo‘qon adabiy muhiti birinchilardan bo‘lib, ayol shoiralar uchun keng imkoniyat yaratib berganligi bilan ham xarakterlanadi. “Ehtimol, tarix maydoniga Amir Umarxondek zukko shoir kelib, o‘z saroyida adabiy bir dasta tuzmaganda, “Qo‘qon adabiy muhiti” degan ibora ham bo‘lmasdi” [10]. Zero, Amiriyning o‘zi ham o‘zbek va fors tillarida mahorat bilan qalam tebratgan, ohorli tashbehu timsollarga boy xassos she’rlari bilan haqli ravishda zamondoshlarining e’tirof va maqtoviga sazovor bo‘lgan [26]. T.Jalolov ta’biri bilan aytganda: “Agar uning o‘rnida boshqa podshoh bo‘lganda, Fazliyni emas, Umarxonning o‘zini malik ul-shuaro qilib tayinlagan bo‘lardi” [11]. Demak, Mohlaroyim – Nodira mana shunday taraqqiy topgan Qo‘qon adabiy muhitida ijod qildi. Keyinchalik, bu muhitga o‘zi ham rahnamolik, homiylik qildi.

Mohlaroyim – Nodira haqida Hakimxon to‘ra shunday yozadi: “U vaqtda Andijon hukumati Rahmonqulbiy amir Olimxonni tog‘asi erdi, anga taalluq erdi, Rahmonqulbiyni qismatida bir qizi bor erdi, ismi Mohlar oyim erdi. Amir Olimxon xohladikim, ul mahdurani amir Umarxonni iqdi nikohiga kirguzsa. Ma’sudxon to‘rani benihoyat hadya birla yubordikim, Umarxonni Andijonga olib borib, iqdi nikoh qilib, Marg‘ilonga keltirib qo‘yib kelgil, deb ruxsat berdi. Ma’sudxon to‘ra Marg‘ilonga kelib, shahzoda Umarxonni lomodliqqa taklif qilib, Andijonga olib yaxshi soatda ul inji saltanatni tohidi ruhga iqd bog‘ladilar” [12].

She’riyatning nozik jihatlarini mukammal egallagan Amiriy bilan umr yo‘lini bog‘lagan Nodira “Sharq nazmiyatining nodir namunalaridan bahra topib...Amiriydan ham badiiyat sirlarini o‘rgangan” [33]. Shu o‘rinda qat’iy aytish mumkinki, Amiriy uning umr yo‘ldoshigina emas, balki she’riyatdagi ustozi ham bo‘lgan: “men ham alar mutobaatida nazm uslubidin bahra topib, “Assuhbatu muassiratun” – bir-biriga ta’sir etuvchi yoqimli suhbat natijasi birla kam-kam she’r qonunidin xabardor bo‘lub, goho biror misra’ va goho biror bayt taqlid birla aytur erdim. Hazrat ba’zi nuqsonlarig‘a isloh berib, mavzun va murassa’ qilur erdilar. To andak fursatda ash’or qoidalarig‘a muvosanat paydo qildim, to nazm fununig‘a mohir va mazmun sehrida sohir bo‘ldim” [18]. Samimiyat va minnatdorlik bilan yo‘g‘rilgan va muhim tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan bu e’tirofdan ma’lum bo‘ladiki, “Nodiraning butun ijodi Amiriy rahnamoligi va ta’siridan xoli emas. U qator she’rlarida ko‘ngli amirining shaxsi va iste’dodini ulug‘labgina qolmay, ijodiga munosib baho ham bergan” [27].

She’riyat olamida katta mavqega ega bo‘lgan ikki ijodkorning oilaviy muhiti xususida o‘z vaqtida sinchi adabiyotshunos olima Mahbuba Qodirova saroy shoiri, qozi Abdunabi Xotifning xotiranomasida shunday tasvirlanganligini aytib o‘tadi:

Bir nodirayi zamoni iffat,
Bir g‘uncha bo‘stoni ismat.
Iqlimi jamol komyobi,
Ismat falakini oftobi.
Donish bila fahmga yagona
Yoinki yagonai zamona.
Gulshan edi munfail ko‘zidin,
Oy birla quyosh xijil yuzidin.
Edi anga shahzoda oshiq,
Uzrog‘a nechukki xor Vomiq.
Yod aylab o‘shal nigori dilkash,
Aqlu xirad edi mushavvash...

Ul “Nodira bilan Umarxonning oilasini muhabbat munavvar qilgan xonadon deyish mumkin.Umarxon Amiriy lirik shoir va davlat arbobi sifatida ko‘pchilikka ma’lum. Nodiraning ijodkorligi, shaxsiy hayotdagi oilaparvarligini hamma kitobxonlar yaxshi biladilar. Biroq Umarxon va Nodiraning mehr-muhabbat asosidagi oilaviy hayotining tarkib topishi, farzandlar tarbiyasi bilan masrurlik damlari, Umarxonning vafotidan keyingi iztirobli kechinmalari bir butun holda o‘quvchilarga havola etilmagan edi. Chunki yaqin o‘tmishda Umarxonning shaxsiy fazilatlari va oiladagi o‘rnini gapirish u yoqda tursin, Nodiraning marhum umr yo‘ldoshiga bag‘ishlab yozgan marsiyalari haqida kengroq so‘zlash ham ancha dushvor edi” [33], – deya e’tirof etishi ham diqqatga sazovor.

Manbalarda shoiraning Amir Umarxonga muhabbati haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi: “Sof qalblik, vafodor, sohib diyonat, karam daryosining duri, ziyrak va donish, davlat bargohining jonkuyari bo‘lgan bu ulug‘ xonim falakning jabru jafosi haddan ziyoda, vafo degan muborak nom anqoga shafi’, odamgarchilik va muruvvatning ismi o‘zi yo‘q bo‘lgan mazkur xonlik va amirliklar davrida, o‘z umr yo‘ldoshi Amiriyga umrining oxirigacha vafodor va chin sadoqatli bo‘lib qoldi” [34].

Uvaysiy o‘z vaqtida Nodira va Umarxon o‘rtasidagi munosabatni quyidagicha ta’riflagan:

Ul Yusuf edi, budur Zulayxo,
Ul Vomiq edi, bu erdi Uzro.

Birisi Layli, birisi Majnun,
Bir-birining muhabbatiga mamnun [33].

M.Qodirovaning yozishicha, ikki ijodkor o‘rtasidagi mehr-muhabbat tuyg‘ulari Amiriyning quyidagi satrlarida ham o‘z aksini topgan:

Agarchi xush diyorda g‘olib o‘ldi ko‘ngul,
Jununi ishqu muhabbatg‘a rog‘ib o‘ldi ko‘ngul,
Shuhud bazmida paymonai muhabbat ichib,
Mudom sog‘ari sahbog‘a tolib o‘ldi ko‘ngul.

Yana M.Qodirova “Bihamdillah, guli mehru muhabbat oshkor o‘ldi” misralari Umarxon ruboiysiga javob tarzida yozilgan [33], – deydi.

“Nodira va Amiriy ijodiy munosabatlari haqida so‘z borganda shuni ham aytish o‘rinliki, bu mashhur shaxslarning pok sevgi-sadoqati, o‘zaro hurmat-ehtiromlari va shirin-totuv hayotlari, shuningdek, she’riy aytishuvlari haqida ancha-muncha naql-rivoyatlar mavjud. Ularning yaratilishi va keng tarqalishi bejiz emas. Masalan, shunday rivoyatlarning birida Amiriyning:

Qoshinga tekizmagil qalamni
Bir harf bila buzmag‘il raqamni,

– kabi o‘ynoqi va ravon misralar bilan boshlanuvchi mashhur g‘azalining yaratilishiga turtki bo‘lgan hayotiy voqea romantik bo‘yoqlarda bayon qilinadi.

Naql etiladiki, keltirilgan misralar bevosita Nodirabegimga xitoban bitilgandir...” [1].

Adabiyotshunos olima Mahbuba Qodirova esa ular orasidagi munosabat haqida shunday yozadi: “– Siz endi forsiyni ham yaxshiroq o‘rganib olsangiz maqbul bo‘ladi. Bu tilda ham muhabbat she’rlari birmuncha. She’riyat olami ichida g‘avvos bo‘lib, shirin xayollarga berilib turgan Mohlarning ko‘ngliga g‘ashlik tushdi:

–Men forscha yozishni ham o‘qishni ham bilaman, – dedi u uyalgansimon, –ayrim mashqiy g‘azallarimga Komila va Nodira, deb laqab ham qo‘yganman.

–G‘azallarning Nodirasi, Komilasiga ofarin...

Umarbek Mohlarga marg‘ilonlik bir shoira haqida xabar eshitganligi, Jahon ismli bu ayolning Uvaysiy unvoni bilan she’rlar yozishini esladi. Hatto uning:

Zaboningni keturgil, ey shakarlab to‘ra, guftora,
Nechukkim, marhamat bo‘lsin necha mendek dilafgora,

– she’rini hofizlar kuylaganda allanechuk zavq bilan eshitganligini gapirib berdi. Keyinchalik... “so‘z gulshanida xushnavo bulbul” deb nom taratgan Uvaysiy va Mohlar opa-singil tutinib qoldilar. Uvaysiy va Mohlar yolg‘iz qolgan vaqtlarida maroq bilan suhbatlashar, yozganlarining yutuq va noqis o‘rinlarini ko‘rsatishib, bir-birlaridan xushnud bo‘lar edilar. Shunday qilib g‘azal va muxammaslarga qog‘ozlar to‘lib borardi. Ularning tab’i nazmlarini kuzatib yurgan Umarbek she’riy san’atlar haqidagi risolalarni ko‘proq o‘qishlarini maslahat berardi. Ustoz shoirlarning g‘azallariga nazira yozish, muxammas bog‘lashni o‘rgatar edi” [29].

Bunday rivoyatlarni ko‘plab keltirish mumkin, jumladan, xalq orasida ularning ustozu shogirdlik munosabatlarini ko‘rsatuvchi xalq orasida shunday rivoyat bor: “Umarxon – Amiriy o‘zi shoh bo‘lsa-da, lekin g‘am-tashvishsiz kuni yo‘qligidan o‘kinib, buning boisi ne bo‘lsa ekan, deb o‘ylanib bir misra yozibdi:

O‘zim shohman, shahzodaman, g‘amim ko‘pdur, nedandir bu?”

Amiriy shu misrani aytibdi-da keyingi misra tiliga kela qolmabdi. Shunda u saroydagi hamma suxandonlarni chaqirtirib, shu satrning davomini yozishni buyuribdi. Gap nimada ekanligini yaxshi anglab yetmagan shoirlar ko‘p urinishibdi, lekin biror xulosaga kela olmabdilar. Oradan uch kun o‘tibdi, lekin shoh buyurgan ish hamon amalga oshmas emish. Shunda Umarxon: “Men shu bir misrani davom ettira olmagan shoirlar bilan suhbatdoshmanmi?” – deb ularga pisanda qilibdi. Bu xabar zudlik bilan Nodiraga yetib boribdi. Shoirlar taqdiriga befarq bo‘lmagan Nodira darhol mushoiraga kelib qo‘shilibdi. Nodira Amiriy tomonidan bitilgan misrani davom ettirib:

Azaldan g‘am turobida bino bo‘lgan badandur bu,

–deb javob beribdi. Ya’ni Umarxonning: Men shohu shahzoda bo‘laturib nega buncha g‘am-tashvishlarim ko‘p, – degan savoliga Nodira: Inson tanasining o‘zi g‘am-tashvishlar bilan yo‘g‘rilgan tufroqdan yaralgan-ku! –deb javob bergan. Nodiraning she’riy satri Amiriy savoliga juda o‘rinli bo‘lib, uning burro javobiga davradagilarning hammasi tasannolar aytishibdi” [33].

Nodira ijodini kuzatganimizda, shunga shohid bo‘lamizki, shoira zarofatli she’riyatining aksariyat qismi turmush o‘rtog‘i Umarxonga bo‘lgan qaynoq muhabbat, qalb kechinmalari, iztirobu sog‘inch tuyg‘ulariga yo‘g‘rilgan.

“Shoiraning Umarxonga bag‘ishlangan she’rlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Xonni vasf etuvchi.

2. Hijron, ayriliq va bevafolikda ayblov.

3. Davlatni boshqarishga oid pand-nasihat.

4. Firoqnoma.

Mohlaroyim lirikasida Umarxon obrazi yetakchi mavqega ega. Bu obraz eng ko‘p qalamga olinganidan tashqari, shoiraning adabiy-estetik ideali, muhabbatining ramzi sifatida ham o‘zgacha pafos bilan tasvirlanadi” [7].

Nodira Umarxonni ham muhabbati hukmdori, ham ijodda o‘z ustozi sifatida ko‘rgan. Bu to‘g‘rida adabiyotshunos olima Z.Qobilova to‘g‘ri e’tirof qilganidek, uning (Umarxonning – S.E.) uslubida qator g‘azallar yaratibgina qolmay, ko‘plab g‘azallariga tatabbu’lar ham qilgan. Jumladan, “sog‘indim”, “kog‘az”, “hofiz”, “men yanglig‘”, “har taraf”, “tasadduq”, “tamosho qil”, “taslim”, “aylasun, shohim”, “qilmadi shohim”, “o‘lsun”, “o‘lmasun”, “kelmadi”, “biri” radifli g‘azallari, “Yor ochti sunbulidin shona birla toblar”, “Iti aylar shikoyat har dam ul mahvash gadosidin”, “Dod etarman, ko‘rsam oning itlari g‘avg‘osidin” misralari bilan boshlanadigan g‘azallariga go‘zal tatabbu’lar qilgan. “Aylamas” radifli muxammasiga ergashib esa ayni radifda g‘azal bitgan. Nodira o‘z tatabbu’larida ba’zida Amiriy g‘azali vazni, qofiya tuzilishi va radifini saqlab qolsa, ba’zida vazn va radifni saqlab, qofiya tartibini, ba’zida esa vazn va qofiya tartibini o‘zgartiradi. Chunonchi, Amiriy devonida “sog‘indim” radifli ikki g‘azal mavjud: vazni va radifi bir xil bo‘lsa-da, qofiyalanish tartibi ikki xil: biri “Nechuk o‘lmayki, jononim kabi jonimni sog‘indim”, ikkinchisi “Qadi sarvi ravon, ruxsori gulnorimni sog‘indim” misrasi bilan boshlanadi. Nodira ularning birinchisiga tatabbu’ qiladi. G‘azal ham, tatabbu’ ham hazaji musammani solim vaznida. Qofiya tizimi va radif aynan saqlangan. G‘azal 9 bayt bo‘lsa, tatabbu’ 11 bayt. G‘azalda “jonim”, “xiromonim”, “Kan’onim”, “tobonim”, “Sulaymonim”, “hayronim”, “somonim”, “xoqonim”, “parishonim”, “sultonim” kabi 10 ta so‘z, tatabbu’da esa “jononim”, “jonim”, “gulistonim”, “sultonim”, “rayhonim”, “tobonim”, “xandonim”, “Kan’onim”, “davronim”, “Turonim”, “pokdomonim”, “Umarxonim” kabi 12 ta so‘z qofiya bo‘lib kelgan. Shundan g‘azaldagi to‘rt qofiya tatabbu’da ham takrorlangan: “jonim”, “Kan’onim”, “tobonim”, “sultonim”. Amiriy g‘azali an’anaviy ishq mavzusida, lekin Nodira tatabbu’si hayotiy asosga ega. U Umarxondan ayrilganidan keyin, hijron kunlarida uni sog‘inib, mazkur g‘azalini yozgan. Bu holni matla’dayoq ko‘ramiz.

Amiriy:

Nechuk o‘lmayki, jononim kabi jonimni sog‘indim,

Bu gulshan ichra ul sarvi xiromonimni sog‘indim [4].

Nodira:

Qolib furqat diyori ichra jononimni sog‘indim,

Charog‘i ro‘zgorim, munisi jonimni sog‘indim.

Quyidagi baytlar esa tatabbu’ga hayotiylik baxsh etibgina qolmay, uning o‘ziga xos originalligini ham ta’minlaydi:

Arabdin to Ajam mashhur edi ul shohlar shohi –

Ki, Eron oftobi, Mohi Turonimni sog‘indim...

Tikarman Nodira g‘am yo‘lida ko‘za Zulayxodek –

Kim, ul Yusufliqo Sulton Umarxonimni sog‘indim [18;241-242].

Nodira Umarxondan ayrilganidan keyin badiiy ijod bilan jiddiy shug‘ullanib, ayriliq iztiroblarini she’rga solganidan bu tatabbu’lar, asosan, originallik va hayotiylik kasb etgan [27].

Nodira ijodiy mahorati Qo‘qon adabiy muhiti, turmush o‘rtog‘i Amiriyning sa’y-harakatlari, Jahon otin Uvaysiy saboqlari ta’siri ostida takomil topib, taraqqiy qildi. Nodira va Jahon otin Uvaysiyning ijodini qiyosiy o‘rganganimizda, shakl jihatdan turlicha bo‘lgan she’rlarida mazmun va realistik tasvir mutanosibligini ko‘rishimiz mumkin. Ma’lumki, realistik tasvir inson sevgisining eng yuksak cho‘qqisi–vafo talqinida chuqur ifoda etiladi. Vafo odamiylikni o‘ziga singdirishdir. Shuning uchun ham Nodira oshiqning eng yuksak fazilatlarini – vafodorlik, vafo shioriga sodiqlik deb biladi.

Bo‘lsa to umru hayotim boqiy,

Meni ilkimduru domoni vafo [15;46].

Shoiraning “Mebosh” radifli fors-tojik tilida yozilgan g‘azalida vafo mavzusi keng qamrovda qalamga olinadi. Ishq vafo bilan qudratli. Vafosizlik ishqni barbod qiladi. Xalq tilida vafo keng ma’noda ishlatiladi. So‘zga vafo qilish, umrning vafo qilishi, yorga vafo qilish va boshqalar. Shoira she’rlarida ham vafo shu tariqa keng ma’noda qo‘llaniladi. U:

Dilo, – ba igqi buton tolibi vafo mebosh,

Hamesha bar dari aqli vafo mebosh.

Mazmuni;

Ey ko‘ngul, mahbublar ishqida vafo talabida bo‘l,

Vafo ahlining eshigida hamisha gado bo‘l,

–deb aytadiki, bu yerda gap yolg‘iz vafodor yor mazmuni doirasidan chiqib “vafo ahli” darajasiga ko‘tariladi. Shoiraning yozishicha, dard ahligina vafo ahlidir. Muhabbatni chuqur ma’noda tushunadigan kishilargina vafo sohiblaridirlar. Ana shunday vafo ahliga murojaat qilib Uvaysiy:

Bag‘rimni qoni labi la’li badaxshona fido,

Nuri imonim o‘shal sham’i shabistona fido.

Vaysiy, o‘lganda tirilmakdin agar etsang umid,

Aylagil joni azizingniki jonona fido [15;46],

–deb xitob qiladi. Ammo, o‘sha zamonda “yorda ham”, “diyorda ham” ana shu vafoning yo‘qligidan zorlangan Uvaysiy:

Istadim bu olamni, topmadim vafo ahli,

Barchadin yumub ko‘zni muddao Uvaysiymen,

– deydi. Nodiraning quyidagi misralari ham Uvaysiy fikrlarining davomidek jaranglaydi:

Jahon makkora zoli bevafodur,

Vafo birla ko‘ngulni qilmadi shod [15;152].

Bunday mushtarak holatlarni shoiralarning g‘azallarida riyokor shayxlar, firibgar zohidlarning quruq va’z va nasihatlari ustidan kulish, o‘rni kelganda fosh qilish hollari tasvirida ham ko‘ramiz. Shoiralarimiz ijodiga nazar tashlar ekanmiz, ularda oshiq ishqini qoralagan zohidlar, mahbubaga ta’na toshlari otgan, ularni do‘zax vahmi bilan qo‘rqitgan muhtasiblarga qarshi norozilik mayllari tez-tez ko‘zga tashlanib turadi. Chunki zohid ishq otashida kuyishdan mahrum, unga oshiqning hijron tufayli fig‘oni, iztiroblari begonadir. Shunday ekan, shoiralar birinchi navbatda “malomat zanjirida” turib zohidga ta’nalar qiladi. Shuningdek, shoiralar ijodida his-tuyg‘ularni ifodalashda tush motiviga ko‘p murojaat etiladi. Nodira g‘azallari ichida, hatto, tush ko‘rishni qo‘msab yozilgan g‘azallar ham mavjud. Shoira “Tushimda ko‘rsam edi” radifli g‘azalida shu orzuda bo‘ladi. Tush ko‘rish orqali yaqin kishisi bilan visol ko‘rishish va dardlashish niyatida ekanligini arz qiladi. Uvaysiy g‘azallari orasida ham “tushda zohir bo‘lgan” oshiq haqida gap boradi. Nodira she’rlari ichida sog‘inish mazmuniga ega g‘azallar bo‘lsa, Uvaysiyning “Sog‘indim” va “Sog‘unurmen” radifli g‘azallari mavjud. Umuman, ikkala shoira ijodidagi mushtaraklik va o‘zaro ta’sir masalasi ilmiy tadqiqotlarda batafsil ifodasini topgan [31]. Yuqorida keltirilgan dalillardan ko‘rinib turibdiki, she’riyat olamiga endigina tashrif buyurayotgan Nodira ijodiga turmush o‘rtog‘i Amiriy va Uvaysiyning ta’siri katta bo‘lgan.

Nodira ijodi va uning shoiru shoiralarga rahnamoligi, hech ikkilanmay aytish mumkinki, tahsinga loyiq. Shoira devoni debochasida bu haqda shunday yozadi: “...Masokin va benavolarg‘a xayru ehsonlar birla bahra yetkurdim. Karam va ato xonidin fuqaro xalqini mamnun va mustag‘ni aylab, marhamat va shafqatlar ko‘rguzdim... Va javorida madrasai fayz-osor ulumi dir talabalarig‘a bino qildim. Va tijorat ahli va savdo xayli uchun saroyi oliy barpo qildim. Jiddu jahd birla sipohiylarg‘a anjom va fuqaroga orom yetkurdim. Mamlakatning obod va mustamandlar ko‘nglini shod qildim... Fazlu donish qabilasig‘a shafqat va marhamdin oncha inoyatlar ko‘rguzdumkim, e’tibor darajasig‘a taraqqiy qildilar. Soyil va shadolarni talabalarig‘a yetkurib, karam va ehson eshikidin noumid yubormadim. Mus’hafi sharif va kutubi diniy va rasoyili yaqiniy ko‘p yozdurdim” [15]. Shoiraning bu iqrorini ko‘pgina tarixchi, adib va shoirlarning asarlarida yozib qoldirilgan ma’lumotlar butkul tasdiqlaydi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, madaniy va obodonchilik ishlariga har yili mamlakat xazinasiga keladigan daromadlarning ko‘p qismi sarflangan. Nodira xazinadagi oltin va kumush pullarni hammom va mehmonxonalar, bozor va rastalar, xiyobon va bog‘lar, masjid va madrasalar, ko‘chalar va karvonsaroylar qurilishiga sarf etgan. “Tarixi mulki Farg‘ona” asarining muallifi Mohlaroyimning Go‘ristoni Kalondagi Madrasai Chalpak, taqachilik rastasidagi “Mohlaroyim” madrasasini qurdirgani, bir yetimxona va musofirlar uchun bir saroy bino ettirgani haqida ma’lumot beradi: “Nodirani davronimiz kamolu aqlu mamlakatni o‘z taxti tasnifiga oldi. Xalqlarni ehsonu karam bilan shod etdi. Farg‘ona mulkini obod qildi. U Zuhra sifat Nodira hech vaqt davlat, saltanatga mag‘rur emas edi. Kamolu aqlu zakosi, tab’i rasosidan kecha-yu kunduz rangin g‘azallar yozish va o‘qish bilan mashg‘ul bo‘lar edi” [13]. Nodira o‘z zamonasida nazm gulshanini bezagan san’atkor sifatida XIX asrning birinchi yarmida o‘zbek adabiyotida ustozlik va homiylik darajasiga ko‘tarila olgan yirik siymolardan biri edi.

XULOSA

Nodira badiiy tafakkurini shakllanishida Qo‘qon adabiy muhitining o‘rnini belgilash asnosida biz o‘z xulosalarimizni bayon qilishni maqsadga muvofiq deb bildik. Ular quyidagilar:

1. XVIII asr I-yarmida Qo‘qon xonligi tasarrufida shakllangan Qo‘qon adabiy muhiti Amir Umarxon davriga kelib taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Davr shoirasi – Nodiraning zarofatli shoira sifatida kamolga yetishishida adabiy muhit muhim o‘rin tutgan. Xususan, Nodira badiiy tafakkurini shakllanishida uning turmush o‘rtog‘i Umarxonning sa’y-harakatlari, Jahon otin Uvaysiy saboqlari ta’siri ostida takomil topgan bo‘lsa, shoira Nodira rahnamoligida ijod qilgan shoiru-shoiralarning adabiy aloqadorligi muhim o‘rin tutgan.

2. Umr yo‘ldoshining vafotidan so‘ng Nodirayi davron Farg‘ona mulkini obod qildi. U adabiy muhit rivojiga hissa qo‘shib, XIX asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyotida ustozlik va homiylik darajasiga ko‘tarila olgan yirik siymo sifatida o‘z izini qoldirdi;

Nodira lirikasi o‘z zamiriga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, adolat, iymon-e’tiqod g‘oyalarini zargarona singdira olgan. Shoira o‘zining lirik asarlari orqali ezgulik, hayotda yaxshi nom va ezgu ish qoldirish g‘oyalarini tarannum etganligi bilan ahamiyatli. Uning lirikasi xalq qalbida jo‘shqinlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Ushbu holat shoirani Qo‘qon adabiy muhitiga munosib voris ekanligini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdug‘afurov A. Qalb qa’ridagi qadriyatlar. –T.: O‘qituvchi, 1998. – bet 178. (Abdugafurov A. Values at the bottom of the heart. - T.: Teacher, 1998. - page 178).
2. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XVI– XIX asr I yarmi). –T.: Fan, 2009. – betlar 125-126. (Adizova I. History of Uzbek classical literature. (1st half of the 16th–19th centuries). -T.: Science, 2009. - pages 125-126).
3. Amiriy. Debocha. O‘zR FA adabiyot muzeyi, 403–raqamli qo‘lyozma. 25a–b–varaqlar. (Amiri. Prelude. Manuscript No. 403 of the Literary Museum of the Russian Academy of Sciences. Sheets 25a-b).
4. Amiriy. Devon. I. O‘zbekcha she’rlar (Nashrga tayyorlovchilar A.Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova, O.Davlatov). –T.: Tamaddun, 2017. – bet 234. (Amiri. Devon. I. Uzbek poems (prepared for publication by A. Madaminov, E. Ochilov, Z. Qobilova, O. Davlatov). - T.: Tamaddun, 2017. - page 234).
5. Ansob us–salotin, 18–6-varaq. (Ansob us-salotin, page 18-6).
6. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkirat ush- shuaro”dan). –T.: Adabiyot va san’at, 1981. – bet 12. (Davlatshah Samarkandi. The city of poets (from Tazkirat ush-shuaro). - T.: Literature and Art, 1981. - page 12).
7. Eshonqulova S. Nodira she’riyatida tarixiy obrazlar talqini. Filol. fan. nom. ...diss. – T., 2011. – betlar 73-92; 36-37. (Eshankulova S. Interpretation of historical images in the poetry of Nodira. Philol. science. name ... diss. -T., 2011. - pages 73-92; 36-37).
8. Eshonqulova S. Nodiraning badiiy mahorati. Filol. fan. dokt. ...diss. – Jizzax, 2022. (Eshankulova S. Nodira's artistic skills. Philol. science. dr. ... diss. - Jizzakh, 2022).
9. Fitrat. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. 2-jild. –T.: Ma’naviyat, 2000. – bet 59. (Phytrate. Selected works. 5 volumes. Volume 2. - T.: Ma'naviyat, 2000. - page 59).
10. Hayitmetov A., Homidiy H. Adabiyotimizning bir shoh ko‘chasi / Adabiy merosimiz ufqlari. –T.: O‘qituvchi, 1997. – bet 22. (Hayitmetov A., Hamidiy H. One highway of our literature / Horizons of our literary heritage. - T.: Teacher, 1997. - page 22).
11. Jalolov T. Maktublar // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1992. 31 yanvar. (Jalolov T. Letters // Literature and art of Uzbekistan. 1992. January 31).
12. Muntahab ut-tavorix. O‘zR FA ShI qo‘lyozmasi, № 594 v.161a. (Muntahab ut-Tawarikh. Manuscript of the FA ShI of the UzR, No. 594 v. 161a).
13. Nodir. Haft gulshan. O‘zR FA ShI, inn № 1861. 8– sah. (Nadir. Haft gulshan. UzR FA ShI, inn No. 1861. 8-p).
14. Nodira. Devon (o‘zbekcha va fors–tojik tilidagi g‘azallari) / Nashrga tayyorlovchi M. Qodirova. –T.: O‘z RFA, 1963. – bet 619. (Nadira. Devon (ghazals in Uzbek and Persian-Tajik language) / Prepared for publication by M. Kadirova. - T.: Own RFA, 1963. - page 619).
15. Nodira. Asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. Devon. –T.: Badiiy adabiyot, 1968. – betlar 30-31. (Nadira. Works. Two volumes. The first volume. Devon. - T.: Fiction, 1968. - pages 30-31).
16. Nodira. Asarlar. Ikki jildlik. II kitob. –T.: Badiiy adabiyot, 1971. – bet 487. (Nadira. Works. Two volumes. Book II. - T.: Fiction, 1971. - page 487).
17. Nodira. Ey sarvi ravon: G‘azallar. Nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi M.Qodirova. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa birlashmasi, 1992. – bet 144. (Nadira. O smooth cypress: Ghazals. The author of the foreword and preparer for the publication is M. Kadirova. - T.: Association of publishing houses named after Gafur Ghulam, 1992. - page 144).
18. Nodira–Komila. Devon. Xalq merosi, –T.: 2001. – bet 21. (Nadira-Komila. Devon. People's heritage, T.: 2001. - page 21).
19. Nodira–Komila. II kitob. –T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004. – bet 372. (Nadira-Komila. Book II. - T.: National Library of Uzbekistan, 2004. - page 372).
20. Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XVII–XIX asrlar o‘zbek she’riyati asosida). Filol. fan. dokt. ...diss. –T., 1999. – bet 292. (Jumahoja, son of Nusratullah Atullo. Ideology of national independence and literary heritage (based on Uzbek poetry of the 17th-19th centuries). Philol. science. dr. ... diss. - T., 1999. - page 292).

21. Tuhfatut tavorixi xoniy. LB, 440, 84 a –varaq. (Tuhfatut Tawarikh Khany. LB, 440, 84 a – sheet).

22. Qayumov A. Nodira. –T.: O‘zdavnashr. Milliy adabiyot, 1958. – bet 94. (Kayumov A. Nadira. -T.: Self-published. National literature, 1958. - page 94).

23. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII–XIX asrlar). –T.: O‘zR FA, 1961. – bet 41. (Kayumov A. Kokan literary environment (XVIII-XIX centuries). - T.: UzR FA, 1961. - page 41).

24. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII–XIX asrlar): Filol. fan. dokt. ... diss. –T., 1961. – bet 563. (Kayumov A. Kokan literary environment (XVIII-XIX centuries): Philol. science. dr. ... diss. -T., 1961. - page 563).

25. Qayumov A. Asarlar. 5-jild. –T.: Mumtoz so‘z, 2009. – bet 14. (Kayumov A. Works. Volume 5. - T.: Mumtoz Soz, 2009. - page 14).

26. Qobilova Z. Amiriy va uning adabiy faoliyati. Fil.fan.nomz. ...dis. avtoref. –T., 2007. – bet 21. (Qabilova Z. Amiri and his literary activity. Bachelor of Science ...dis. autoref. - T., 2007. - page 21).

27. Qobilova Z. Badiiy ijodda ta’sir va izdoshlik masalalari (Amiriy she’riyati misolida). Filol. fan. dokt. … diss. – Farg‘ona, 2020. – betlar 169-171. (Qabilova Z. Issues of influence and followership in artistic creation (as an example of Amiri's poetry). Philol. science. dr. ... diss. -Fergana, 2020. - pages 169-171).

28. Qodirova M. Amiriy. Adabiy meros. 2-kitob. –T.: Fan, 1971. – bet 104. (Kadirova M. Amiriy. Literary heritage. Book 2. - T.: Science, 1971. - page 104).

29. Qodirova M. Davr Nodirasi. –T.: Fan, 1991. – betlar 45-46. (Kadirova M. Davr Nodirasi. - T.: Science, 1991. - pages 45-46).

30. Qodirova M. Nodira hayoti va ijodi: Filol. fan. nom. ... diss. –T., 1961. – bet 182. (Kadirova M. Life and work of Nodira: Philol. science. name ... diss. - T., 1961. - page 182).

31. Qodirova M. XIX asr shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri: Filol. fan. dokt. ... diss. –T., 1975. – bet 307. (Kadirova M. Fate of man and nation in the work of poets of the 19th century: Philol. science. dr. ... diss. - T., 1975. - page 307).

32. Qodirova M. XIX asr o‘zbek shoirlari ijodida inson va xalq taqdiri. –T.: Fan, 1977. – betlar 34-38. (Kadirova M. Fate of man and nation in the works of Uzbek poets of the 19th century. - T.: Science, 1977. - pages 34-38).

33. Qodirova M. She’riyat va muhabbat malikasi. –T.: Adabiyot va san’at, 1998. – betlar 15; 19; 21; 22; 41; 37. (Kadirova M. The queen of poetry and love. - T.: Literature and Art, 1998. - pages 15; 19; 21; 22; 41; 37).

34. Кадырова М. Надыра. –Т.: Фан, 1967. – страница 32.(Kadirova M. Nadira. - T.: Fan, 1967. - page 32).